

SAVOD O'RGATISH JARAYONIDA BILIMIDA BO'SHLIG'I BOR O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH

Olimova Muslimaxon Obidjon qizi

*Farg'ona tumani 31-son ayrim fanlar chuqur o'qitiladigan davlat umumta'lim
maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Abstract: Hozirgi kunda yurtimizda ta'lim sohasiga e'tabor kundan-kunga ortib bormoqda. Xususan, yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan qabul qilinayotga qarorlar va yangi loyihalarning ta'lim sohasiga oidligi diqqatga sazovordir. So'ngi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini rivojlantirish, o'quvchi va o'qituvchilar uchun qulay sharoit yaratish borasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Eski maktablar o'rniga yangi, qulay, zamonaviy maktablar barpo etilmoqda. O'quv xonalari zamonaviy mebel, texnologik qurilmalar va yangi darsliklar bilan ta'minlanmoqda. Endilikda ko'plab maktablarda kompyuter va laboratoriya xonalari mavjud. Ta'lim jarayoniga ham raqamli texnologiyalar va inovatsiyalar kirib keldi. Elektron darsliklar, interaktiv doskalar, onlayn platformalar ishlamoqda. Msofaviy ta'lim imkoniyatlari yaratilgan, o'quvchilar istalgan vaqtda bilim olishlari mumkin.

Kalit so'zlar: harflar va tovushlar, harflarning talaffuzi, she'rlar.

O'qituvchilar uchun muntazam seminarlar, kurslar attestatsiya imtihonlari, malaka oshirish kurslari tashkil qilinadi. Innovatsion pedagogik metodlar, interfaol usullar va zamonaviy o'qitish texnologiyalari o'qitiladi. Maktablarda sport, musiqa, san'at va ilmiy to'garaklar faoliyat yuritadi. Kitobxonlikni rivojlantirish maqsadida ko'plab ko'rik tanlovlar o'tkazilmoqda. Ijtimoiy yordam va stipendiyalar orqali qiyi sharoitda yashovchi bo'quvchisini yo'qotgan o'quvchi va talabalar ham ta'lim olishi ta'minlanmoqda. Davlat tomonidan maktablar faoliyati doimiy tarzda nazorat qilinadi. Shunday imkoniyatlardan to'g'ri va samarali foydalanish yosh avlodning buguni va ertasi uchun juda muhimdir.

Bunday jarayonda eng muhim omil va yordamchi bu o'quvchilarning savod o'rganish jarayoni hisoblanadi. Savod o'rganish jarayoni o'quvchi uchun juda murakkab jarayon bo'lib unda nafaqat yozishni va o'qishni balki talaffuz va eshitish ko'nikmalarini ham o'rganadi. Bu jarayon asta-sekin amalga oshadi va uning bir nechta bosqichlari mavjud. Dastlabki bosqichda o'quvchilarning eshitish, gapirish, diqqatni jamlash rivojlantiriladi. Shuning uchun ham bu bosqichda o'yinlar, she'rlar, qo'shiqlar bilan nutq rag'batlantiriladi. So'ng harflar va tovushlar bilan tanishtirish bosqichidir.

Ikkinchi bosqich harflarni o'rganish bosqichidir. Unda alifbo harflarini tanish va yozish, harflarning talaffuzi va ovoz chiqarish qoidalarini o'rganadi. Interfaol o'yinlar, rangli harflar va kartochkalar orqali o'quvchilar bilimi

mustahkamlanadi.

Uchinchi bosqich soʻz va gap tuzish bosqichi. Harflarni oʻrgangan oʻquvchilar endi ular orqali soʻzlar yasashni oʻrganadi. Soʻzlar orqali gaplar tuzadi. Qisqa soʻzlarni oʻqish va yozish, gaplar tuza olish koʻnikmalari shakllantiriladi.

Toʻrtinchi bosqich bu mustahkamlash va rivojlantirish bosqichi. Olingan bilimlar takrorlanadi va mustahkamlanadi. Murakkab boʻlgan matnlarni oʻqib tushunish, hikoya tuzish, sheʼr oʻqish, yozma mashqlar ushbu bosqichda amalga oshiriladi.

Beshinchi bosqich baholash va ragʻbatlantirish bosqichi. Unda oʻquvchining oʻqish va yozish darajasini baholash, har bir yutuqni maqtash, ragʻbatlantirish va motivatsiya berish xosdir.

Savod oʻrgatish jarayoni talaffuz, harf va soʻzlarni oʻrganishdan boshlab, matnni tushunish va yozish koʻnikmalarini rivojlantirishgacha boʻlgan uzluksiz va bosqichma-bosqich jarayon hisoblanadi. Bu jarayonda interaktiv usullar, oʻyinlar, ragʻbatlantirish va takrorlash muhim rol oʻynaydi.

Yuqoridagi jarayonlarni amalga oshirilishiga qaramasdan ayrim oʻquvchilarning bilimida boʻshliq kuzatiladi. Uni bartaraf etishni esa dastlabki yillardanoq boshlash lozim chunki keying sinflarda oʻquvchilarning oʻzlashtirish jarayoni yomonlashadi va oʻqishga boʻlgan qiziqishi yoʻqoladi. Bunday holatni bartaraf etishni esa quyidagi metodlar orqali amalga oshirish mumkin.

1. “Yashirin qobiliyatni topish” metodi.

Bilimi past boʻlgan bola koʻpincha sust emas, balki oʻz kuchini namoyon qila olmayotgan boʻladi. Har bir bunday oʻquvchi uchun: qaysi faoliyatda (rasm chizish, harakat, gapirish) oʻzini erkin his qilishni aniqlash, shu kuchli tomoni orqali savodga kirib boorish taklif etiladi. Masalan, rasm chizishni yoqtirgan bola harfni rasm ichidan topadi yoki rasmlar asosida soʻzlar, gaplar tuzadi.

2. “Mikro-gʻalaba” texnikasi metodi.

Bilimida boʻshligʻi bor oʻquvchi koʻp muvaffaqiyatsizlik koʻrgan boʻladi. Shuning uchun katta vazifalar oʻrniga juda kichik, lekin aniq natijali topshiriqlar beriladi; har bir kichik yutuq alohida eʼtirof etiladi. Masalan: bugun faqat bitta harfni toʻgʻri tanisa, bu ham gʻalaba hisoblanadi.

3. “Xato-jazolash emas, oʻrgatuvchi hodisa” muhiti.

Bu yondashuvda: xato qilgan bola tanbeh emas, tushunish va qayta urunib koʻrish imkonini oladi. Sinfdagi xato qilish- “oʻrganishning bir qismi” degan madaniyat yaratiladi. Bu bolalarda qoʻrquvni kamaytirib, savodga boʻlgan ishonchni oshiradi.

4. “Bir bola-bir yoʻl” metodi.

Bilimida boʻshligʻi bor oʻquvchilar bilan ishlashda umumiy metoddan koʻra, har bir bola uchun mos kichik-yoʻl xaritasi tuziladi; kimdir uchun ogʻzaki mashqlar, kimdir uchun koʻproq yozma yoki harakatli mashqlar

tanlanadi. Bu usul bolani boshqalar bilan emas, faqat o'zi bilan taqqoslash imkonini beradi.

5. "Do'st-o'qituvchi" juftligi.

Sinfda bilimli, mehribon o'quvchi tanlanib: bilimida bo'shlig'i bor bolaga do'st sifatida yordam beradi. Birgalikda o'qish, yozish, so'z tuzish mashqlarini bajaradi. Bu faqat bilimni, balki ijtimoiy moslashuvni ham kuchaytiradi.

6. "Harakat orqali savod" usuli.

Ba'zi bolalar o'tirib o'rganishga qiynaladi shuning uchun harflarni havoda yozish, polda harf shaklida yurish, so'zlarni tanasi bilan ifodalash orqali o'rganish yo'lga qo'yiladi. Bu ayniqsa faol, tez chalg'iydigan bolalar uchun juda samarali.

7. "Ota-ona –sinf hamkori" konsepsiyasi.

Bilimida bo'shlig'i bor bolani faqat maktabda emas, uyda ham qo'llab-quvvatlash zarur. Ota-onaga oddiy, stressiz mashqlar tavsiya qilinadi. "Majburiy dars" emas, "birga o'rganish va quvonish" muhitini yaratadilar. Bu bola o'zini yolg'iz emasligini his qiladi.

8. "Yulduzlar kundaligi".

Har bir bilimida bo'shlig'i bor o'quvchilar uchun alohida kundalik yuritiladi. Har kuni qilgan eng kichik yutug'i yoziladi. Bola o'z o'sishini ko'rib boradi. Bu kichik motivatsiyani sezilarli darajada oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, savod o'rgatish jarayonida bilimida bo'shlig'i bor o'quvchilar bilan ishlash-bu faqat dars berish emas, balki bolaning ichki ishonchini qayta uyg'otish, o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash va uni muvaffaqiyat sari yetaklash jarayonidir. Har bir bola o'ziga xos imkoniyatlarga ega bo'lib, to'g'ri yondashuv orqali har qanday bo'shliqni to'ldirish mumkin.

Maskur yondashuv orqali o'qituvchi bolani boshqalar bilan emas, kechagi holati bilan solishtiradi, xatoni jazolanadigan emas, rijovlanishga hizmat qiladigan imkoniyat sifatida qabul qiladi. Natijada bola o'rganishdan qo'rqmaydigan, savodga ijobiy munosabatda bo'ladigan, o'z kuchiga ishonadigan shaxs sifatida shakllanadi.

Eng muhimi, bilimida bo'shlig'i bor o'quvchi-bu muammo emas, balki to'g'ri yo'l ko'rsatilsa, katta natijalarga erishishi mumkin bo'lgan imkoniyatdir. Shunday ekan, har bir bola uchun individual yondashuv, mehr, sabr va ijodkorlik asosida tashkil etilgan savod o'rgatish jarayoni boshlang'ich ta'limning sifatini oshiradigan eng muhim omillardan biridir.